

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.16.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERKAYEVA NODIRA CHORIYOROVNA**

**FILTRLOVCHI QO‘SHIMCHALAR QO‘LLASH BILAN O‘SIMLIK  
MOYLARINI RAFINATSIYALASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash  
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Erkayeva Nodira Choriyorovna**

Filtrlovchi qo‘shimchalar qo‘llash bilan o‘simlik moylarini  
rafinatsiyalash texnologiyasini takomillashtirish ..... 3

**Эркаева Нодира Чориёровна**

Усовершенствование технологии рафинации растительных  
масел с применением фильтрующих добавок..... 21

**Erkaeva Nodira**

Improvement of the technology of refining vegetable oils  
with the use of filtering additives..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.16.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ERKAYEVA NODIRA CHORIYOROVNA**

**FILTRLOVCHI QO‘SHIMCHALAR QO‘LLASH BILAN O‘SIMLIK  
MOYLARINI RAFINATSIYALASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash  
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3844 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida ([www.bstu.uz](http://www.bstu.uz)) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Axmedov Azimjon Normo'minovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Majidov Qaxramon Xalimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Ro'ziboyev Akbarali Tursunbayevich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 03 fevral soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, Faks: (+99865) 223-78-84, E-mail: ([info@bstu.uz](mailto:info@bstu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (483 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 14- yanvar kuni tarqatildi.  
(2025 yil 31- oktabrdagi № 15 raqamli reestr bayonnomasi)



**S.F.Fozilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**A.T.Oltiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

**I.B. Isabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda aholi sonini oshishi, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarni esa kamayib borishi bilan xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Fiziologik jihatdan muhim hisoblanuvchi va ovqatlanish ratsionining majburiy tarkibiy qismi bo‘lgan o‘simlik moylari ta‘minoti ham shu jumlagi kiradi. Shuningdek o‘simlik moylarini oksidlanishdan saqlash va sifati yomonlashgan yog‘-moy mahsulotlarini regeneratsiyalash bilan oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bugungi kunda eng muhim ahamiyatga ega.

Jahonda moyli o‘simlik xomashyosi va mos ravishda o‘simlik moylari ishlab chiqarish hajmlari so‘nggi yigirma yilda ikki barobardan ko‘proqqa oshganiga qaramasdan, o‘simlik moylari bilan bog‘liq ishlab chiqarish tarmoqlari va iste‘mol madaniyatining o‘zgarishi natijasida yog‘-moy mahsulotlariga bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ham izchil olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda iste‘mol uchun oziq-ovqat xavfsizligi talablari bo‘yicha bir necha bosqichli rafinatsiyalashdan o‘tgan moylar ishlab chiqarilishi, ularning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari, saqlash va foydalanish davrida doimiy ravishda ta‘sir etuvchi ko‘pgina omillar ta‘sirida o‘zgarib, sifati pasayib borishiga oid hamda jarayonda qo‘llanadigan ehtiyot choralariga qaramasdan, o‘simlik moylari o‘z-o‘zidan oksidlanish uchun yetarli darajadagi oksidlovchi qo‘shimchalarga ega bo‘lishi natijasida, uzoq muddatli saqlangan moylarda, ayniqsa to‘yinmagan yog‘ kislotalari ko‘p bo‘lgan iste‘mol moylarining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari yomonlashib, kislota va peroksid sonlarini oshishi bilan boruvchi oksidlanish hosilalari paydo bo‘lishi tegishli yangi texnologik yechimlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yog‘-moy mahsulotlarining turlarini ko‘paytirish, raqobatbardosh muhitni shakllantirish, mahsulot sifatini yuqori darajada oshirish, aholini ehtiyojini kafolatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini kengaytirish, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, respublikani jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining oziq-ovqat sohasiga ta‘siri bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borib aniq takliflar ishlab chiqish” vazifasi belgilab berilgan<sup>1</sup>. Jumladan, mahalliy xomashyodan foydalanib, ozuqaviylik va biologik qiymati yuqori bo‘lgan yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118 sonli “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrda 724-sonli "Yog'-moy mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoning yetakchi olimlari o'simlik moylari tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalari nafaqat moyli urug'larni saqlash va uni qayta ishlash jarayonlarida, balki tayyor yog'-moy mahsulotlarini saqlash va foydalanish davrida ham turli omillar ta'sirida oksidlanish bilan buzilishga moyil hisoblanib, ushbu sohada ya'ni turli jarayonlarda moylarning sifatini oshirish, assortimentini kengaytirish, texnik va texnologik takomillashtirish bo'yicha dunyoda quyidagi olimlar S.A.Hussain, R.Jamal, M.Tariq, M.M.Iqbal, F.Chigondo, B.S.Nyamunda, V.Bhebhe, K.Yildiz, V.P.Rjexin, A.A.Shmidt, N.S.Arutyunyan, N.L.Melamud respublikamiz olimlaridan A.A.Abdurahimov, A.I.Glushenkova, S.A.Abduraximov, A.N.Lisitsin, A.T.Ilyasov, K.X.Majidov, I.B.Isabayev, Q.P.Serkayev, D.S.Salixanova, A.N.Axmedov, A.A.Abduraximov, D.S.Sagdullayeva, O.A.Ikromov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar hamda muhim ilmiy-amaliy yutuqlarga erishganlar.

Ular tomonidan o'simlik moylarini ajratib olish, qayta ishlash jarayonlarida samaradorlikni oshirish, mahsulot sifati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan gidratlash, rafinatsiyalash va oqlashning mukammal texnologiyalari yaratilgan.

Biroq, bugungi kunda yog' va moylar texnologiyasini kompleks takomillashtirishga qaratilgan hamda moylarni oksidlanishdan saqlash, uzoq muddat saqlangan moylarni sifati buzilishi bilan bog'liq muammolar, birlamchi oksidlangan moylarni chuqur qayta ishlash orqali regeneratsiyalash yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AT-1/23 sonli "O'simlik moylarini birlamchi tozalash jarayonini takomillashtirish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** filtrlovchi qo'shimchalar qo'llash bilan o'simlik moylarini rafinatsiyalash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

o'simlik moylarini oksidlovchi omillarni tadqiq etish bilan birlamchi oksidlanishga uchragan moylarni qayta tiklash imkoniyatini aniqlash;

birlamchi oksidlanish hosilalarini bartaraf etishga qaratilgan qayta rafinatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish;

hamroh moddalari kam bo'lgan moy-soapstok tizimida moyni samarali filtrlashga mo'ljallangan g'ovakli tarkibga ega filtrlash agentini yaratish;

soapstokni koagulyatsiyalash va oksidlanish hosilalarini samarali bartaraf etishga mo'ljallangan filtrlash-oqlash agentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish;

filtrlash agentlarini moyni filtrlash ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

tadqiqot natijalarni sanoatda sinash, texnologik va iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida paxta va kungaboqar moylarining fizik-kimyoviy tarkibi, moylarning saqlash jarayonidagi o'zgarishlari, oksidlanish hosilalarini bartaraf etishga qaratilgan rafinatsiyalash va filtrlash agentlarini olish jarayonlari.

**Tadqiqotning predmeti** saqlash jarayonidan qaytgan, birlamchi oksidlanish alomatlari mavjud bo'lgan paxta va kungaboqar moylari, opokasimon gillarni termik va kislotali shuningdek, kungaboqar luzgasini piroliz qilib olingan filtrlash-oqlash agentlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida opokasimon gillar, kungaboqar luzgasi asosidagi faollashtirilgan uglerodli gillar va ularning kompozitsiyalarini, shuningdek ishlov berilgan moylarni tadqiq etishda YuSSX, GX, SEM va boshqa fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'simlik moylarida moyli urug'dagi lipoksigenazalar ta'sirida hosil bo'lgan gidroperekislarning izlari yorug'lik, harorat va mahsulot tarkibidagi namlik hisobiga metall ionlari yoki boshqa erkin radikallar bilan ta'sirlashib, malon dialdegidlarigacha parchalanishi isbotlangan;

paxta va kungaboqar moylarini kaustik sodaning 250 g/l konsentratsiyali eritmasi bilan sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasiga asosan 14,1 dan 4,2 mmol  $\frac{1}{2}$  O/kg gacha, kungaboqar moyi uchun 17,3 dan 1,4 mmol  $\frac{1}{2}$  O/kg gacha pasayishi ilmiy asoslangan;

moy-soapstok muhitidagi muallaq zarrachalarni samarali filtrlash uchun 20% konsentratsiyali karbamid eritmasi shimdirilgan kungaboqar luzgasining Karmana opokasimon gili bilan 50:50 nisbatdagi aralashmasini 180-200°C haroratda pirolizlash bilan olingan filtrlash agentining (FA) g'ovakliklari o'rtacha o'lchami 77,01 Å bo'lganda moyni filtrlash tezligini 1,34 martagacha jadallashtirishi ilmiy asoslangan.

70% li sirka kislotasida yumshoq usulda faollashtirilgan Karmana opokasimon gilini kungaboqar luzgasi bilan aralashtirib pirolizlash natijasida olingan koagulyatsiyalovchi va adsorbtsion faollikga ega filtrlash oqlash agenti (FOA) moyning kislotaga hamda peroksid sonlarini 30% gacha samarali pasaytirishiga erishishi isbotlangan;

sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylariga 60° C haroratda moy massasiga nisbatan 1,5-2,0% miqdorida filtrlash-oqlash agenti bilan ishlov berish moy-soapstok muhitida soapstokni koagulyatsiya markazlarini hosil qilib, jipslashtirishi hisobiga filtrlashning dastlabki tezligini 10% gacha oshirishi ilmiy asoslangan;

oksidlangan paxta va kungaboqar moylarini sayqallovchi rafinatsiyalash, moy-soapstok muhitida moyni samarali filtrlash uchun FA va koagulyatsiyalovchi hamda adsorbtsion faollikga ega FOA olish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'simlik moylarini oksidlanish jarayoniga turli omillarning ta'siri va bu jarayonlarni fiziologik ahamiyati asoslangan;

sanoatda va saqlash jarayonida birlamchi oksidlanish hosilalari paydo bo'lgan moylarni sayqallovchi rafinatsiyalash bilan iste'mol darajasigacha regeneratsiyalash imkoniyati yaratilgan;

sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylarida hosil bo'lgan kichik zarrachali, muallaq turib qoluvchi soapstokni moydan ajratishda termik faollashtirilgan opokasimon gil va pirolizlangan kungaboqar luzgasi aralashmalaridan, shuningdek, opokasimon gilni kislotali faollashtirishda organik asosli sirka kislotasidan foydalanishga asoslangan ekologik toza texnologiya ishlab chiqilgan;

yaratilgan texnologiyalar bo'yicha olingan FA va FOA qo'llash bilan filtrlash samaradorligini 10% gacha oshirilgan bo'lib, ularning o'tkazuvchanligini reglament me'yorlarida saqlanish darajasini ta'minlash asoslangan;

FOA qo'llanganda moyning rangi, kislota va perikis sonlarini qo'shimcha ravishda pasaytirishga erishishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot natijalarining yetarli darajada aniqligini ta'minlash uchun parallel tajribalar, qo'pol xatolarni qisqartirish, dispersiyalarning bir xilligini va tajribalar takrorlanuvchanligining xatoligini tekshirish amalga oshirilganligi, miqdoriy tarkibini tahlil qilish va statistik qayta ishlashning, tajribaviy tadqiqotlarning xalqaro usullaridan foydalanganligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o'simlik moylarida moyli urug'dagi lipoksigenazalar yorug'lik, harorat va mahsulot tarkibidagi namlik hisobiga metall ionlari yoki boshqa erkin radikallar bilan ta'sirlashib, malon dialdegidlarigacha parchalanishi, paxta va kungaboqar moylarini kaustik sodaning 250 g/l konsentratsiyali eritmasi bilan sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasiga asoslanganligi, FA moyni filtrlash tezligini 1,34 martagacha kuchaytirishi tajriba natijalarida qayd etilganligi, adsorbtsion faollikga ega FOA moyning kislota hamda perekis sonlarini 30% gacha samarali pasaytirishiga erishilganligi, sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylariga 60<sup>0</sup> C haroratda moy massasiga nisbatan 1,5-2,0% miqdorida filtrlash-oqlash agenti bilan ishlov berish filtrlashning dastlabki tezligini 10% gacha oshirishi bilan izohlanadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'simlik moylarini oksidlanish jarayoniga turli omillarning ta'siri va bu jarayonlarni fiziologik ahamiyati asoslanganligi, sanoatda va saqlash jarayonida birlamchi oksidlanish hosilalari paydo bo'lgan moylarni sayqallovchi rafinatsiyalash bilan iste'mol darajasigacha regeneratsiyalash imkoniyati yaratilganligi, opokasimon gilni kislotali faollashtirishda organik asosli sirka kislotasidan foydalanishga asoslangan ekologik toza texnologiyalari ishlab chiqilganligi, yaratilgan texnologiyalar

bo'yicha olingan FA va FOA qo'llash bilan filtrlash samaradorligini 10% gacha oshirilganligi, ularning o'tkazuvchanligini reglament me'yorlarida saqlanish darajasi ta'minlanganligi, FOA qo'llanganda moyning rangi, kislota va perikis sonlarini qo'shimcha ravishda pasaytirishga erishishi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Filtrlovchi qo'shimchalar qo'llash bilan o'simlik moylarini rafinatsiyalash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida.

sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasi "Asian golden oil" MChJ korxonasi joriy etilgan ("O'zyog'moysanoati korxonalari" uyushmasining 2024-yil 25-oktabrdagi KC/3-369 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moyning kislota sonini 0,52 dan 0,17 mg KOH/g gacha, perekis sonini 18,4 dan 6,4  $\frac{1}{2}$ O mmol/kg gacha, rangini 23 dan 14 mg J gacha pasaytirishga hamda namunalarni 1,0-2,0% miqdorida filtrlovchi agent qo'shib filtrlashda moyning filtrlanish tezligi 0,42 dan 1,63 kg s/m<sup>2</sup> gacha oshirish imkonini bergan;

sayqallovchi rafinatsiyalash va FOA agentlarini soapstokni moydan ajratish texnologiyasi "Sultontex group" MChJ korxonasi joriy etilgan ("O'zyog'moysanoati korxonalari" uyushmasining 2024-yil 25-oktabrdagi KC/3-369-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moyga 1,0-2,5% miqdorida filtrlovchi-oqlovchi agent qo'shilishi moyning filtrlanish tezligini 4,56 martagacha oshishiga, rangini 12% gacha pasaytirishga, kislota sonini 30% gacha va perekis sonini 15% gacha kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 13 ta maqola, jumladan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda hamda 2 ta Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida muammoning dolzarbligi, ilmiy-amaliy asoslari, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, natijalarni sanoat sinovlari, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'simlik moylarini rafinatsiyalash jarayonini takomillashtirishning istiqbollari**" deb nomlangan birinchi bobida o'simlik moylarining tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari, ularni hamroh moddalardan tozalash, rafinatsiyalashning o'ziga xos jihatlari, moylarni saqlashdagi o'zgarishlarni oldini olish va oksidlanish hosilalarini bartaraf etishning, shuningdek moylarni filtrlash jarayonini jadallashtirishning istiqbolli yo'nalishlari

adabiy manbalar tahlili orqali muhokama qilingan va dissertatsiya tadqiqotining yo‘nalishi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlarda foydalanilgan xom ashyo va materiallar tavsifi, izlanish usullari va natijalarni tahlil qilish uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarda foydalanilgan xom ashyo va materiallarning tavsifi, tadqiqotlarda qo‘llangan laboratoriya qurilmalari tavsifi va tajribalar olib borish tartibi, tadqiqot usullari, natijalarni statistik tahlil qilishda foydalanilgan usulbar va natijalarning ishonchliligi tahlili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Saqlash jarayonida sifati o‘zgargan o‘simlik moylarini sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida o‘simlik moylarini saqlash jarayonidagi o‘zgarishlarni bartaraf etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Quyilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun biz tomonimizdan quyidagi 3 ta yo‘nalishdagi eksperimental tadqiqotlar olib borildi:

o‘simlik moylaridagi oksidlanish hosilalarini samarali bartaraf etishga qaratilgan sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish;

moy:ishqor emulsiyali muhitida soapstok zarrachalarini koagulyatsiyalash va adsorbsiyalashga qaratilgan filtrlash va filtrlash-oqlash agentlarini ishlab chiqish;

filtrlash jarayonini takomillashtirish bilan moy-soapstok reaksion aralashmasi muhitidan soapstokni samarali ajratish usulini ishlab chiqish.

Eksperimental tadqiqotlarda fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan, saqlashdan qaytgan moylardan foydalanildi.

### 1-jadval

#### Birlamchi oksidlangan o‘simlik moylarining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Saqlashdan oldin		Saqlashdan qaytarishda		Standart talablari	
	paxta	kungab.	paxta	kungab.	paxta	kungab.
Kislota soni, mg KOH/g	0,18	0,24	0,6	0,9	0,3	0,6
Rangi*	8	10	8	10	8	10
Perekis soni, mmol ½ O/ kg	6,1	3,3	14,1	17,3	10,0	10,0
Namlik va uchuvchi moddalarning massa ulushi, %	0,19	0,1	0,21	0,11	0,2	0,1
Sovunlanmaydigan moddalar, %	0,85	0,14	0,86	0,41	1,0	ruxs.etilm

\*- Rangi: paxta moyi uchun Lovibond bo‘yicha 1 sm qalinlikdagi kyuvetada, doimiy 35 sariq birlikda - qizil birlik; kungaboqar moyi uchun yod shkalasi bo‘yicha - mg yod.

1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, saqlash muddati tugagandan so‘ng, paxta moyining kislota soni 0,6 mg KOH/g gacha, kungaboqar moyiniki esa 0,9 mg KOH/g gacha oshgan. Moylarning rangi o‘zgarmagan bo‘lsada, perekis soni paxta va kungaboqar moylariga mos ravishda 14,1 va 17,3 mmol ½ O/kg ni tashkil etgan. Kislota va perekis sonining oshishi, rangi va shaffofligi o‘zgarmagani moy namunalari hali birlamchi oksidlanish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi. Birlamchi oksidlanish hosilalarini bartaraf etish va sifat ko‘rsatkichlarini standart talablargacha keltirish uchun biz tomonimizdan sayqallovchi rafinatsiyalash taklif qilindi va bu so‘z (atamasi)ning mazmuni shundaki, moyning hamroh moddalari kamligidan kelib chiqib, kislota soniga mos ravishda, konsentratsiyasi 250 g/l

bo‘lgan kaustik soda eritmasidan, 50% ortiqcha miqdor sarflab rafinatsiyalash amalga oshiriladi. Jarayonning kechishi odatdagi ishqoriy rafinatsiyadan quyidagilar bilan farqlanadi:

moyning ishqor bilan ta’sirlashuvchi hamroh moddalari, jumladan rang beruvchi moddalar, saqlashdan oldingi rafinatsiyalash vaqtida chiqarib yuborilgan;

asosiy maqsad saqlash jarayonida paydo bo‘lgan erkin yog‘ kislotalari va oksidlanish hosilalarini neytrallash bo‘lgani uchun jarayonda yuqori konsentratsiya va ortiqcha ishqor sarfiga ehtiyoj yo‘q;

moy tarkibida ishqor bilan ta’sirlashuvchi fosfolipidlar, karotinoidlar va xlorofillar kabi soapstokka qutblanish beruvchi va koagulyatsiya markazlarini hosil qiluvchi moddalar kamligi natijasida soapstok hosil bo‘lishi qiyin.

Tajribalarda moyning kislota va perekis sonlaridan kelib chiqib, paxta moyi uchun 0,65 kg/t, kungaboqar moyi uchun 0,75 kg/t ishqor sarflandi. Jarayonning boshida moy harorati 25°C, oxirida esa 50° C ni tashkil etdi. Soapstokni namlash uchun suv sarfi oxirigi konsentratsiya 0,125 g/l bo‘lishiga hisoblandi. Aralastirgich tezligi 50-60 ayl/min, neytrallash davomiyligi 30 daqiqa, koagulyatsiya vaqti 15-20 daqiqani tashkil qildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Paxta va kungaboqar moylarini “Sayqallovchi rafinatsiyalash” jarayonidan keyingi fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Moyning ko‘rsatkichlari	
	paxta	kungaboqar
Toza moy chiqishi, %	96,1	95,5
Kislota soni, mg KOH/g	0,15	0,14
Rangi	8	10
Shaffofligi	shaffof	shaffof
Perekis soni, mmol ½ O/kg	4,2	1,4
Sovunga sifat tahlili	yo‘q	yo‘q
Namlilik va uchuvchan moddalar, %	0,1	0,1
Sovunlanmaydigan moddalar, %	0,8	0,1

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta moyining kislota soni 0,15 mg kungaboqar moyiniki esa 0,14 mg KOH/g gacha, perekis soni esa paxta va kungaboqar moylariga mos 4,2 va 1,4 mmol ½ O/kg gacha pasaygan.

Shunday qilib, saqlash jarayonida oksidlanishga uchragan moylarni taklif qilinayotgan usulda sayqallovchi rafinatsiyalash moyning kislota va perekis sonlarini talab darajasigacha pasaytirish imkonini beradi. Lekin, jarayonda hosil bo‘ladigan soapstok, uni koagulyatsiyalashga yordam beruvchi hamroh moddalar yo‘qligi tufayli qiyin kechadi va kichik zarrachalar birikmay muallaq turib qoladi. 3-jadvalda sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylarida hosil bo‘lgan soapstokni cho‘ktirish natijalari keltirilgan.

3-jadvalda ko‘rinib turibdiki, nazorat tajribalarida soapstokni cho‘ktirishda muammo mavjud emas. Paxta moyida 2 soatda 90%, 4-5 soatda esa cho‘kishi mumkin bo‘lgan 98% zarrachalar cho‘kmaga tushadi. Analogik holat kungaboqar moyini rafinatsiyalashda ham kuzatilsada, undagi soapstok zarrachalari kichikligi

natijasida soapstokni to‘liq cho‘kish davri 6 soatni tashkil etadi. Sinov tajribalarida, hosil bo‘lgan soapstok miqdori moy massasiga nisbatan kam bo‘lsada cho‘kishga moyil emas, ya’ni asosiy qismi moyda kichik zarrachalar ko‘rinishida muallaq turib qoladi.


### 3-jadval

#### Sayqallovchi rafinatsiyalangan moylarning soapstogini cho‘ktirish natijalari

Moy turi	Soapstokni cho‘ktirish davomiyligi, soat							
	1	2	3	4	5	6	7	8
	Cho‘kmaga tushgan soapstokning umumiy hisoblangan miqdorga nisbatan ulushi, %							
Paxta moyi: nazorat;	70	90	95	97	98	98	98	98
sinov	15	18	19	19	20	20	21	21
Kungaboqar moyi: nazorat;	64	69	79	89	94	98	98	98
sinov	12	15	15	16	17	18	19	19

Natijada, 8 soat davomida paxta moyida hosil bo‘lgan cho‘kmaning 21%, kungaboqar moyida esa 19% cho‘kmaga tushgan.

Aniqlanishicha, reaksiyon aralashmadagi cho‘kma miqdori 1,0% dan oshmasada, zarrachalarning kichikligi cho‘kma tushishiga to‘sqinlik qiladi. 1-rasmda sayqallovchi rafinatsiyalangan moylarni 0,3 MPa gacha bosimda filtrlash natijalari keltirilgan.



1-rasm. Sayqallovchi rafinatsiyalangan moylarni filtrlash tezligini vaqt davomida o‘zgarishi

1-rasmdan ko‘rinib turganidek, hosil bo‘lgan zarrachalar namligi yuqori va plastik bo‘lgani uchun filtr matoning yuzasida deformatsiyalangan qatlam hosil qilib g‘ovakliklarni to‘lib qolishi jarayon samarasini pasaytiradi. Filtr mato namlik ta‘sirida bo‘kadi va drenaj xususiyati yomon bo‘lgan plastik cho‘kma bilan qoplanib qoladi. Biz tomonimizdan, soapstok zarrachalarini filtrlash jarayonida filtr to‘siqlarini tiqilib qolishini bartaraf etuvchi maxsus filtrlash agentlarini qo‘llash taklif qilindi. Buning uchun biz Karmana opokasimon gili va korxonalaridan olingan kungaboqar luzgasining sorbsion xususiyatlarini tadqiq etdik. Opokasimon gil va kungaboqar luzgasini 200<sup>0</sup> C haroratda termik ishlov berish bilan faollashtirish va olinadigan adsorbentning nisbiy yuzasini mos ravishda 192,34 va 132,14 m<sup>2</sup>/g gacha oshirish mumkinligi aniqlangan bo‘lib,

opokasimon gilda mezo va makrog'ovakliklar asosiy o'rinni egallasa, kungaboqar luzgasidan piroliz yo'li bilan olingan materialda mikro:mezo va makrog'ovaklar nisbati 4:6 ni tashkil etadi.

Tajribalarimizda 1,0-2,0 mm oraliqda maydalangan kungaboqar luzgasini massasiga nisbatan 0,2% miqdorida karbamidning 20% eritmasi bilan 50-60 daqiqa davomida namlandi, so'ng 2% alyumokaltsiyli kvarts bilan ishlov berib, 180-200<sup>0</sup> C haroratda opokasimon gil bilan 50:50 nisbatda aralashtirib kislorodsiz muhitda piroliz qilindi. Bunda strukturaviy bog'langan suvni chiqarib yuborish natijasida gilning g'ovakligi o'zgaradi va kationlar adsorbsiyasini ta'minlovchi qo'shimcha g'ovakliklar paydo bo'ladi. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

### Alohida va aralashma holda faollashtirilgan opokasimon gillarning ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Namunalar*			
	OG	TF-OG	P-KL	FA
Nisbiy yuza (BET), m <sup>2</sup> /g	153,25	192,34	132,14	165,1
Mikrog'ovaklarning nisbiy yuzasi, m <sup>2</sup> /g	-	-	58,72	29,36
Mezo va makrog'ovaklarning nisbiy yuzasi, m <sup>2</sup> /g	153,25	192,34	73,42	132,5
G'ovaklarning umumiy hajmi, sm <sup>3</sup> /g	0,262	0,405	0,162	0,287
Adsorbsion g'ovaklarning o'rtacha o'lchami, Å	98	120	33,1	77,01

\*-OG-tabiiy opokasimon gil, TF-OG - termik faollashtirilgan opokasimon gil, P-KL - piroliz qilingan kungaboqar luzgasi, FA – aralashmadan iborat filtrlash agenti.

4-jadvaldan ko'rish mumkinki, tabiiy opokasimon gilga termik ishlov berish natijasida uning nisbiy yuzasi 153,25 dan 192,34 m<sup>2</sup>/g gacha oshdi. Unda butun yuza mezo va makrog'ovaklardan iborat bo'lib, mikrog'ovaklar mavjud emas. Bu gilning boshqa gillardan yana bir asosiy farqli jihati g'ovakliklarning umumiy hajmi (0,405 sm<sup>3</sup>/g) va ularning o'rtacha o'lchami kattaligida (120 Å). Bunday o'lchamli g'ovakliklar yirik molekulali moddalarni (sovun qoldiqlari, oksidlanishning birlamchi va ikkilamchi hosilalari) sorbsiyalash va filtrlashda qo'l keladi. Lekin, kichik o'lchamli moddalarni sorbsiyalashda ishtirok etish uchun katta hisoblanadi.

Kichik o'lchamli g'ovaklikli tarkibni hosil qilish uchun kungaboqar luzgasini pirolizlab, yuzaning nisbiy maydoni 132,14 m<sup>2</sup>/g gacha oshirilgan, mikrog'ovaklarning nisbiy yuzasi 58,72 m<sup>2</sup>/g gacha bo'lgan, adsorbsion g'ovaklarning o'rtacha o'lchami 33,1 Å bo'lgan tarkibini olishga erishildi. Bunday tarkibiy tuzilish va adsorbsion ko'rsatkichlar olingan mahsulotlar kompozitsiyasini yaratish va FA sifatida qo'llashga asos bo'ldi.

Bizning tadqiqotlarimizda o'simlik moyi tarkibidagi ion bog'lanishga moyil hamroh moddalarni faol markazlar yordamida birlashtirish muhimligidan kelib chiqib, bunday markazlarni ko'proq saqlab qolish imkoniyatini qidirdik va organik kislotalar bilan ishlov berilganda ularning tarkibi "yumshoq" ta'sirga uchrab, faol markazlarni ko'proq saqlanib qolishini inobatga olib, opokasimon gillarni sirka kislotasida (UK) faollashtirdik. Sirka kislotali faollashtirishda kislotaning 70% konsentratsiyali eritmasida maksimalga erishildi. Bunda gil va kislotali eritmaning nisbati sulfat kislotali ishlov berishdagi kabi, 1:2,5 bo'lgan gidromodul tanlanib, 25-40% kislotasarfida faollashtirildi. Olingan suspenziyali massa distillangan suv

bilan pH muhiti 4-5 ga yetguncha yuvildi. Hosil bo'lgan gil massasi dastlab ochiq sharoitda, so'ngra esa quritish shkafida harorat 110-120<sup>0</sup> C da, 2 soat davomida quritildi. Gilning sorbsion sig'im ko'rsatkichlarini tahlil qilinib, namunalarning nisbiy yuzasi, mikro va mezog'ovakliklar nisbiy yuzasi, g'ovakliklarning umumiy hajmi, shuningdek o'rtacha o'lchami kabi ko'rsatkichlari aniqlandi. 5-jadvalda sirka kislotali faollashtirilgan opokasimon gil (UKF-OG), piroliz qilingan kungaboqar luzgasi (P-KL) va ularning aralashmasining FOA sorbsion xossalari keltirilgan. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

## 5-jadval

### Turli usullarda faollashtirilgan opokasimon gillarning sorbsion xossalari

Ko'rsatkichlar	Namunalar*			
	SKF-OG	UKF-OG	P-KL	FOA
Nisbiy yuza (BET), m <sup>2</sup> /g	164,36	179,20	132,14	159,11
Mikrog'ovaklar nisbiy yuzasi, m <sup>2</sup> /g	4,70	8,55	58,72	69,45
Mezo va makrog'ovaklarning nisbiy yuzasi, m <sup>2</sup> /g	159,66	170,65	73,42	124,06
G'ovakliklarning umumiy hajmi, sm <sup>3</sup> /g	0,384	0,307	0,162	0,242
Adsorbsion g'ovakliklarning o'lchami, Å	74	82	33,1	60,39

\*SKF-OG-sulfat kislotali va UKF-OG-sirka kislotali faollashtirilgan opokasimon gil, P-KL-piroliz qilingan kungaboqar luzgasi, FOA – filtrlash-oqlash agenti.

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, opokasimon gilga sirka kislotasida ishlov berilganda nisbiy yuza 179,2 m<sup>2</sup>/g gacha undagi mikrog'ovaklar 8,55 m<sup>2</sup>/g gacha oshgani, g'ovakliklarning umumiy hajmi 0,307 sm<sup>3</sup>/g ni tashkil etdi. Sirka kislotasining past konsentratsiyasida asosiy o'zgarish uning gidroksil guruhini gilning yuzasidagi protonoaktseptor markazlari bilan ta'sirida kechadi. Yuqori konsentratsiyali sirka kislotasi bilan esa gilning elektronaktseptor Lyuis markazlari kislotaning karbonil kislorodi bilan ta'sirlashadi. Natijada, zarrachalar sirtida koordinatsion to'yingan alyuminiy atomi va monodetanant holdagi karboksilatni tutgani uchun Bronsted bo'yicha protondonor markazli gidroksil guruhga ega bo'ladi. Sirka kislotasida faollashtirilgan opokasimon gillar strukturasi maqsadli o'zgartirish bilan ham kislotali ham asosli ta'sir markazlari hosil bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Sayqallovchi rafinatsiyalash texnologiyasi va filtrlash-oqlash agentlarini sanoatda qo'llash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylarini FA va FOA agentlari bilan ishlov berishning filtrlash jarayoniga ta'sirini o'rganish, sanoat sharoitida sinash va iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan. Biz tomonimizdan olingan aralashmalarni sayqallovchi rafinatsiyalangan paxta va kungaboqar moylarida soapstok zarrachalarini koagulyatsiyalovchi va filtrlash-oqlash agenti sifatida sinab ko'rildi (6-jadval).

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sayqallovchi rafinatsiyalashdan keyin TF-OG qo'shib so'ng filtrlangan namunalarda reagent sarfi 0,5-2,0% gacha bo'lganda moyning rang ko'rsatkichlari 8 dan 7 qiz. birlikkacha kamayishi, kislotasi sonini 0,15 dan 0,11 mg KOH/g gacha tushirishga imkon berdi. Moyning rangi reagent sarfi 0,5-1,0% ni tashkil etganda 6 qizil.birl gacha pasaygan bo'lsa, 1,5-2,0% da 5 qizil birl. gacha pasaygan.

Shu moyga piroliz qilingan kungaboqar luzgasidan olingan reagentni (P-KL) qo'llanganda olingan natijalar ham 6-jadvalda keltirilgan.


**Paxta moyini termik ishlov berilgan opokasimon gil, piroliz qilingan kungaboqar luzgasi va ularning aralashmasida ishlov berish natijalari**

Ko'rsatkichlar	Gil namunalari			
	TF-OG	P-KL	FA	FOA
Reagent sarfi, moy massasiga nisbatan 0,5%				
Kislota soni, mg KOH/g	0,15	0,15	0,15	0,13
Rangi*	8	8	7	7
Shaffofligi	xiralik bor	xira	shaffof	shaffof
Perekis soni, $\frac{1}{2}$ O/mmol kg	3,9	4,1	3,8	3,5
Sovunga sifat tahlili	musbat	musbat	manfiy	manfiy
Namlik va uchuvchan moddalar, %	0,1	0,09	0,09	0,09
Reagent sarfi, moy massasiga nisbatan 1,0%				
Kislota soni, mg KOH/g	0,13	0,14	0,13	0,12
Rangi*	7	8	7	6
Shaffofligi	shaffof	xira	shaffof	shaffof
Perekis soni, $\frac{1}{2}$ O/mmol kg	3,7	4,1	3,6	3,0
Sovunga sifat tahlili	manfiy	musbat	manfiy	manfiy
Namlik va uchuvchan moddalar, %	0,11	0,09	0,09	0,10
Reagent sarfi, moy massasiga nisbatan 1,5%				
Kislota soni, mg KOH/g	0,12	0,14	0,12	0,11
Rangi*	7	8	7	6
Shaffofligi	shaffof	xira	shaffof	shaffof
Perekis soni, $\frac{1}{2}$ O/mmol kg	3,7	4,1	3,6	2,9
Sovunga sifat tahlili	musbat	musbat	manfiy	manfiy
Namlik va uchuvchan moddalar, %	0,11	0,09	0,08	0,09
Reagent sarfi, moy massasiga nisbatan 2,0%				
Kislota soni, mg KOH/g	0,11	0,14	0,12	0,11
Rangi*	7	8	7	6
Shaffofligi	shaffof	xira	shaffof	shaffof
Perekis soni, $\frac{1}{2}$ O/mmol kg	3,5	3,8	3,5	2,5
Sovunga sifat tahlili	manfiy	manfiy	manfiy	manfiy
Namlik va uchuvchan moddalar, %	0,10	0,09	0,1	0,1

\*-paxta moyining rangi Lovibond bo'yicha doimiy 35 sar.birl. da, qizil birl., kungaboqar moyining rangi yod shkalasi bo'yicha, mgJ birliklarida keltirilgan.

Ikkala reagentning 50:50 nisbatdagi aralashmasidan tashkil topgan koagulyatsiyalovchi FOA qo'shilgan moylarda eng ahamiyatli tomoni shundaki, ularning shaffofligi va sovunga sifat tahlili manfiyligi kuzatildi.

Keyingi tadqiqotlarimizda o'simlik moylarini sayqallovchi rafinatsiyalash jarayonida hosil bo'ladigan siqiluvchan cho'kmani filtrlashda filtrlovchi agent miqdorining vaqt davomida, shuningdek, filtr yuzasida hosil bo'ladigan cho'kmaning qalinligiga bog'liq ravishda filtrlash tezligi va bosimiga ta'sirini tadqiq etildi. Tajribalarda ishqoriy rafinatsiyalangan, sayqallovchi rafinatsiyalangan, filtrlovchi agent qo'shilmagan va 0,25% dan 2,0% gacha qo'shilgan moy namunalari GOST 332-91 mos keluvchi filtrlovchi belting (FB) matosida filtrlash ko'rsatkichlari o'rganildi. Dastlab bosimning yuqori chegarasi 0,3 MPa bo'lgan sharoitda filtrlash tezligini tadqiq etildi. Tajriba natijalari 2-rasmda keltirilgan.




**2-rasm. Filtrlovchi agent miqdoriga bog‘liq ravishda vaqt davomida filtrlash tezligini o‘zgarishi**

Keyin esa xuddi shu namunalarni filtrlashda filtrlovchi agent miqdorini vaqt davomida bosimning o‘zgarishiga ta’siri aniqlandi.

Nazorat uchun ishqoriy rafinatsiyalangan va avval soapstogini cho‘ktirish yo‘li bilan ajratilgan moyni filtrlandi (2-rasm, nazorat tajribasi). Bunda filtrlashning dastlabki tezligi  $0,175 \text{ kg/m}^2$  ni tashkil etdi. Filtrlash jarayoni 1 soatgacha davom ettirilganda oqim tezligi sezilarli o‘zgarishi qayd etilmadi. 1,5-4 soat ichida filtrlash tezligi  $0,169$  dan  $0,154 \text{ kg/m}^2$  gacha pasayishi 8 soatda esa  $0,146 \text{ kg/m}^2$  gacha, ya’ni jami 8 soatlik ish jarayonida  $0,029 \text{ kg/m}^2$  ga pasayishi kuzatildi.

